

TARJIMANING TURLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tillayeva Iroda To'liq qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Tarjimonlik fakulteti 2- bosqich talabasi

Ilmiy rahbari: Xodjayeva S. S.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimaning asosiy turlari — soʻzma-soʻz, maʼnoga asoslangan, adabiy, texnik va ogʻzaki tarjima turlari batafsil tahlil qilinadi. Har bir turning oʻziga xos xususiyatlari, afzallik va kamchiliklari, shuningdek, amaliy misollar yordamida tushuntiriladi. Maqola tarjimonlik faoliyatining murakkabligi va tarjima uslublarining mazmunij jihatlar haqida chuqurroq tushuncha hosil qilishga qaratilgan. Tarjima jarayonida til va madaniyat oʻrtasidagi murakkab munosabatlar ham yoritiladi.

Kalit soʻzlar: soʻzma-soʻz tarjima, semantik tarjima (maʼno asosida), badiiy tarjima, texnik tarjima, ogʻzaki tarjima

Annotation: This article provides a detailed analysis of the main types of translation — literal, semantic (meaning-based), literary, technical, and oral translation. The unique characteristics, advantages, and disadvantages of each type are explained with practical examples. The article aims to give a deeper understanding of the complexity of translation work and the semantic aspects of translation styles. It also highlights the complex relationship between language and culture in the translation process.

Key words: literal translation, semantic translation (based on meaning), literary translation, technical translation, oral translation

Аннотация: В данной статье проводится подробный анализ основных видов перевода — дословного, смыслового (основанного на значении), литературного, технического и устного перевода. Уникальные особенности, преимущества и недостатки каждого вида объясняются с помощью практических примеров. Статья направлена на более глубокое понимание





сложности переводческой деятельности и семантических аспектов стилей перевода. Также освещается сложное взаимодействие между языком и культурой в процессе перевода.

Ключевие слова: дословный перевод, смысловой перевод (основанный на значении), литературный перевод, технический перевод, устный перевод

Tarjima — bu til va madaniyatlararo kommunikatsiyaning asosiy vositasi bo'lib, turli sohalarda keng qo'llaniladi. Har bir tarjima turi o'zining alohida vazifa va uslubiga ega bo'lib, mazmunni aniq va tushunarli yetkazish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tarjimaning asosiy turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Qolaversa, tarjima – bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima – millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir¹, tabdil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki turi hozirda ham saqlanib qolgan.

Zamonlar osha tarjimaga bo'lgan talablar yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmaydi. Tarjimaning ko'lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga bog'liq va o'z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi. „Tarjima“ termini bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi.

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili – alohida „badiiy voqelik“ unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma'noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o'tkazish, obrazni obraz

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tafsir>



bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima jarayonida tarjimon hammavaqt o'z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezoni bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Nizomiyning "Xisrav va Shirin" dostonini o'g'irgan Qutb (...Nizomiy bolidan holva pishurdim") tarjima nusxa ko'chirish kabi bir ish bo'lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa boldan holva pishiruvchi mohir yozuvchi bo'lishi kerakligini aytadi. Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o'ziyoq uning shakllangan tamoyillari, an'analari bo'lganligini ko'rsatadi.² Hozigi davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab xalqlar tilidan o'z ona tiliga ilm-fan va madaniyatning o'nlab sohalariga oid materiallarni (lirik she'rlar, xabarlar, texnologiya adabiyoti va boshqalar) tarjima qiladi.

Tarjima nusxa ko'chirish emas; tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari, Tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl matnini yangi til vositasida qayta gavdalandiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan voqelikning muallif darajasida puxta bilishi kerak. Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida Tarjimachilikning ta'siri katta bo'ladi, zero tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdosh. O'zbek adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan. Ba'zi bir tarixiy manbalarga ko'ra, Mahmud Koshg'ariy³, Rabg'uziy⁴, Qutb, Navoiy⁵, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa ijodida tarjima katta o'rin egallaydi.

Tarjimaning quyidagi turlari va ularning xususiytlari haqida ko'rib chiqamiz:

² https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_milliy_ensiklopediyasi

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Koshgariy>

⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Rabuziy>

⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Qutb_Xorazmiy



✚ So'zma-so'z tarjima.

So'zma-so'z tarjimada matndagi har bir so'z va ibora boshqa tilga imkon qadar to'g'ridan-to'g'ri o'zgartiriladi. Bu uslub o'rganish bosqichida yoki lug'atlarni yaratishda samarali, ammo tabiiylikdan ko'ra ko'proq texnik xarakterga ega. *Misol uchun*, "He is a good man" so'zma-so'z tarjimada "U yaxshi odam" deb beriladi. Biroq, bu tarjima ko'pincha matnning tabiiyligini kamaytiradi. So'zma-so'z tarjimada asosiy maqsad - asl matndagi so'zlarni imkon qadar har birini alohida-alohida boshqa tilga o'zgartirishdir. Bu uslubda tilning sintaksisi va frazeologiyasi ko'pincha e'tiborga olinmaydi. Natijada matn tabiiy emas, balki "mashina" tarjimasiga o'xshash ko'rinish olishi mumkin.

So'zma-so'z tarjima *xususiyatlari*:

- Har bir so'z alohida tarjima qilinadi.
- Asl matn tuzilishi o'zgarmaydi.
- Til tabiiyligi past bo'lishi mumkin.
- Asosan til o'rganishda yoki so'z boyligini aniqlashda qo'llaniladi.

✚ Ma'noga asoslangan (erkin) tarjima

Bu turdagi tarjimada so'zlarning tashqi shakli emas, balki matnning umumiy mazmuni va ma'nosi saqlanadi. Tarjimon o'quvchi uchun tabiiy, madaniy kontekstga mos keladigan matn yaratadi. *Masalan*, "It's raining cats and dogs" iborasi so'zma-so'z tarjimada tushunarsiz bo'lishi mumkin, ammo ma'noga asoslangan tarjimada "Yomg'ir juda kuchli yog'moqda" deb tarjima qilinadi.

Xususiyatlari:

- Matn mazmuni va ruhiyati saqlanadi.
- So'zlar erkin almashtiriladi.
- Matn tabiiy va o'quvchi uchun tushunarli bo'ladi.
- Madaniy farqlarni inobatga olish zarur.

✚ Adabiy tarjima

Adabiy tarjimada badiiy asarlarning estetik va poetik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Tarjimon asarning ruhini, uslubini saqlagan holda o'ziga xos



tarjimani yaratadi. Shakespeare'ning *"Shall I compare thee to a summer's day?"* satri *"Seni yoz kuniga qiyoslaymanmi?"* kabi tarjima qilinadi, bu esa so'zma-so'z emas, balki his-tuyg'uni etkazadi.

Texnik tarjima

Texnik tarjimada aniq va ravshan ma'lumotlar berilishi muhim bo'lib, u ilmiy va texnik sohalarga oid matnlarni o'z ichiga oladi. Terminologiya va maxsus atamalar qat'iy rioya qilinadi. Misol uchun, *"The voltage must not exceed 220 volts"* iborasi *"Kuchlanish 220 voltdan oshmasligi kerak"* tarzida aniq tarjima qilinadi.

Og'zaki tarjima

Og'zaki tarjima - og'zaki bayonning asosiy ma'nosi bir tildan ikkinchi tilga o'tkaziladigan tarjima turi. Bu uslubda tarjimonning tez fikrlashi va aniq ifoda etishi muhim.

Og'zaki tarjimaning e'tiborga molik xususiyati uning qat'iy bo'lmagan shaklidir, ya'ni tarjimon asl matnni faqat bir marta idrok etishi mumkin (odatda u matnning kichik bir qismidir), shuningdek, tarjimasi tugallangandan keyin uni solishtirish yoki tuzatish imkoniyatiga ega emas. Sinxron tarjima, Vizual tarjima va Ketma-ket tarjima turlari mavjud bo'lib, rasmiy yig'ilishlar, konferensiyalar va diplomatik muloqotlarda keng qo'llaniladi.

Tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari:

Birinchidan, tarjima har ikki tilning **lingvistik xususiyatlarini** chuqur bilishni talab qiladi. Har bir til o'zining grammatikasi, sintaksisi, leksikasi va iboralari bilan farqlanadi. Masalan, ingliz tilidagi *"I miss you"* iborasi o'zbek tiliga *"Men seni sog'inaman"* deb tarjima qilinadi, lekin bu ikki ibora tuzilish jihatidan farqli. Shunday qilib, tarjimon har ikki tilning tuzilmasini mukammal tushunishi zarur.

Ikkinchidan, tarjimada **madaniy tafovutlar** muhim rol o'ynaydi. Har bir til o'z madaniy kontekstiga ega. Ba'zi ibora va tushunchalar bir tilda oddiy bo'lishi mumkin, ammo boshqa tilda umuman mavjud emas. Masalan, *"Thanksgiving"*



kabi bayramlarni tarjima qilishda tarjimon uni o'quvchiga tushunarli qilib izohlashi yoki mos madaniy ekvivalent topishi kerak bo'ladi.

Uchinchi, tarjimada **ma'noni saqlash** — ya'ni semantik sodiqlik juda muhim. Ba'zida tarjimon so'zma-so'z emas, balki matnning umumiy mazmuni va ruhini saqlagan holda erkin tarjima qiladi. Ayniqsa, badiiy matnlar yoki og'zaki nutqda bu juda muhim. Metafora va obrazlar boshqa tilda o'xshash ta'sir uyg'otishi kerak.

To'rtinchi, tarjima matni **tabiiy va ravon** bo'lishi kerak. Tarjimadan chiqqani seziladigan, so'zma-so'z o'girilgan jumlar o'quvchiga sun'iy tuyuladi. Shuning uchun tarjimon o'z ifodasini shu tilga xos uslub va usul bilan yetkazishi kerak.

Beshinchi, tarjimon **betaraf** bo'lishi lozim. Tarjima qilinayotgan matnga o'z shaxsiy qarashlarini qo'shmaslik kerak. Ayniqsa, siyosiy, diniy yoki ideologik jihatdan sezgir matnlarda bu prinsip muhimdir. Tarjimon faqat muallifning fikrini ifodalashi, uni o'zgartirmasligi shart.

Oltinchi, tarjima jarayonida **uslubiy moslikka** rioya qilish talab qilinadi. Tarjima qilinayotgan matnning janri, uslubi, rasmiy yoki norasmiyligi inobatga olinadi. Masalan, ilmiy maqola rasmiy, aniq va qisqa bo'lishi kerak, adabiy asar esa obrazli va estetik jihatdan boy bo'lishi zarur.

Yettinchi, tarjimada **kontekstual moslik** juda muhim. So'zlar kontekstdan tashqari tarjima qilinsa, noto'g'ri ma'no yuzaga chiqadi. Bir so'zning bir nechta ma'nosi bo'lishi mumkin va uni to'g'ri tarjima qilish uchun kontekstni to'g'ri tushunish zarur. Masalan, "run" so'zining turli kontekstlarda "yugurmoq", "boshqarmoq", "tugamoq" kabi ma'nolari bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, tarjima – bu til vositasida muloqot qilishdan ko'ra kengroq faoliyat bo'lib, u madaniyatlararo anglashuvni ta'minlaydi. Har bir tarjimon yuqoridagi xususiyatlarni chuqur o'zlashtirib, har bir matnni o'quvchi uchun tabiiy, aniq va mazmunli shaklda yetkazishi kerak. Tarjima san'ati til bilimini, madaniyat tushunchasini, estetik did va fikrlash darajasini birlashtirgan murakkab jarayondir.



Tarjima turlari o'z vazifalari va xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. So'zma-so'z tarjima ko'proq texnik va lug'at maqsadlarida qo'llanilsa, ma'noga asoslangan va adabiy tarjima matnning ma'nosi va ruhiyatini etkazadi. Texnik tarjima aniqlikni ta'minlasa, og'zaki tarjima tezlik va aniq ifodani talab qiladi. Tarjima faoliyati til va madaniyatni chuqur bilishni, ijodiy yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nasriddinov, O. (2001). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'zbek tili va adabiyoti nashriyoti.
2. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
3. Larson, M.L. (1998). Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence. University Press of America.
4. Catford, J.C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. Oxford University Press.
5. Hatim, B., & Mason, I. (1997). The Translator as Communicator. Routledge.
6. <https://intereuroconf.com/index.php/PPFIIR/article/>